№6/2026



ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ISSN 2181-4309

ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLAR – O‘QUVCHI-YOSHLARDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHNING ASOSI SIFATIDA

Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya.
Mazkur maqolada etnopedagogik qadriyatlarning o‘quvchi-yoshlarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Xalq pedagogikasi, folklor, milliy urf-odat va an’analardan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishning samarali usullari tahlil qilingan. Etnopedagogik vositalar orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur, tarixiy xotira, vatanparvarlik va madaniy dunyoqarashni rivojlantirish imkoniyatlari asoslangan. Etnopedagogik qadriyatlardan tizimli foydalanish milliy o‘zlikni shakllantirishning muhim pedagogik omili ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar:
etnopedagogika, milliy o‘zlik, milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, folklor, urf-odat, an’ana, vatanparvarlik, tarixiy xotira.

Аннотация.
В статье раскрываются педагогические возможности этнопедагогических ценностей в формировании национального самосознания учащейся молодёжи. Анализируются эффективные способы использования народной педагогики, фольклора, национальных обычаев и традиций в образовательном и воспитательном процессе. Обосновываются возможности развития у учащихся национальной гордости, исторической памяти, патриотизма и культурного мировоззрения посредством этнопедагогических средств. Доказано, что систематическое использование этнопедагогических ценностей является важным педагогическим фактором формирования национальной идентичности.

Ключевые слова:
этнопедагогика, национальная идентичность, национальные ценности, народная педагогика, фольклор, обычаи, традиции, патриотизм, историческая память.

Abstract.
This article explores the pedagogical potential of ethnopedagogical values in developing national self-awareness among students and youth. It analyzes effective ways of using folk pedagogy, folklore, national customs, and traditions in the educational and upbringing process. The study substantiates the potential of ethnopedagogical tools for developing students’ national pride, historical memory, patriotism, and cultural worldview. It is demonstrated that the systematic use of ethnopedagogical values is an important pedagogical factor in the formation of national identity.

Keywords:
ethnopedagogy, national identity, national values, folk pedagogy, folklore, customs, traditions, patriotism, historical memory.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodning milliy o‘zligini anglash, tarixiy-madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarda vatanparvarlik, xalqparvarlik, milliy an’ana va urf-odatlarga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishda etnopedagogik qadriyatlarning pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan etnopedagogik meros — xalq og‘zaki ijodi namunalari, dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, afsonalar, maqol va matallar, xalq qo‘shiqlari, urf-odatlar hamda an’analar yosh avlodning ma’naviy-madaniy dunyoqarashini rivojlantirishda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Ushbu qadriyatlarni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etish orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy tafakkur, madaniy identifikatsiya va ma’naviy mas’uliyatni shakllantirish mumkin.

Milliy o‘zlikni anglash – shaxs va millatning o‘ziga xosligini, tarixiy ildizlari, tili, madaniyati, urf-odatlari, an’analari va milliy qadriyatlarini anglash, shuningdek,

ISSN 2181-4309

umumiy milliy manfaat va ehtiyojlarni tushunish jarayonidir. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning milliy-madaniy merosga munosabatini faqat nazariy bilimlar asosida emas, balki amaliy faoliyat, ijodiy topshiriqlar, muloqot va tajriba asosida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish, etnopedagogik qadriyatlardan foydalanishning samarali shakl, vosita va metodlarini aniqlash muhim ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

O'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirish va rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida nazariy va amaliy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

O'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirish va rivojlantirishning metodologik asosini xalq pedagogikasi, etnopedagogika, milliy tarbiya nazariyasi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar tashkil etdi. Mavzuni yoritish jarayonida tarixiylik, tizimlilik, uzviylik, madaniy moslik va shaxsga yo'naltirilganlik tamoyillariga asoslaniladi. O'zbek xalqining boy etnopedagogik merosi, jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalari — ertaklar, dostonlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, matallar va xalq qo'shiqlari, shuningdek, milliy urf-odatlar, an'analar hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib boriladigan tarbiyaviy jarayonlar mazmuni o'rganilish maqsadga muvofiqdir.

Etnopedagogik qadriyatlar – o'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni anglashning asosi ekanligini yoritishimizda quyidagi metodlardan foydalanish o'rinlidir:

· **ilmiy-nazariy tahlil** — etnopedagogika, milliy tarbiya va o'quvchilarda milliy o'zlikni shakllantirishga oid ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilishda;

· **qiyosiy tahlil** — xalq pedagogikasi namunalarining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlashda;

· **pedagogik kuzatish** — ta'lim jarayonida etnopedagogik vositalardan foydalanish xususiyatlarini o'rganishda;

· **umumlashtirish** — olingan ilmiy natijalarni tizimlashtirish va metodik tavsiyalar ishlab chiqishda;

· **pedagogik modellashtirish** — o'quvchilarda milliy o'zlikni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni ishlab chiqishda.

O'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslarini shakllantirishda o'zbek pedagogika fanining rivojiga munosib hissa qo'shgan olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Jumladan, V.Y. Zohidov, A. Zunnunov, N.M. Mallayev, U.Q. Maqsudov, O. Musurmonova, S. Nishonova, N. Ortiqov, O. Safarova, R.G'. Safarova, O. Hasanboyeva, T.A. Egamberdiyeva, Z.K. Qurboniyozova, M.E. Abdullayev hamda M. Quronovlarning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu masalani yoritishimizda xalq pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish, milliy qadriyatlar asosida shaxs tarbiyasini

ISSN 2181-4309

tashkil etish, o‘quvchi-yoshlarda milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy fazilatlarni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish joiski, etnopedagogik qadriyatlar o‘quvchi-yoshlarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish va rivojlantirishning samarali pedagogik vositalaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, folklor asarlari, milliy urf-odatlar, an’analar va xalq ijodiyoti namunalaridan foydalanish o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini boyitish, tarixiy tafakkurini rivojlantirish va milliy qadriyatlarga ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchi-yoshlarda milliy o‘zlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi etnopedagogik vositalar quyidagi yo‘nalishlarda tizimlashtirildi:

1. Folklor namunalarini tizimli o‘rganish. Ertaklar, dostonlar, rivoyatlar, afsonalar va xalq qo‘shiqlarini muntazam o‘rganish orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga qiziqish va hurmat shakllantiriladi.
2. Xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish. Ertak va dostonlardagi qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali yaxshilik va yomonlikni farqlash, jasorat, halollik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlar rivojlantiriladi.
3. Folklor asarlarini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish. O‘quvchilar xalq qo‘shiqlari, doston va rivoyatlarning mazmunini izohlash, ularda ifodalangan asosiy g‘oyalarni aniqlash, obrazlarni baholash va o‘z munosabatini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
4. Qahramonlik obrazlari orqali milliy o‘zlikni rivojlantirish. “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi xalq dostonlari hamda tarixiy shaxslar haqidagi rivoyatlardan foydalanish o‘quvchilarda ajdodlar merosiga hurmat, milliy faxr va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga yordam beradi.
5. Xalq qo‘shiqlarining estetik va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish. Xalq qo‘shiqlari o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirish, hissiy dunyosini boyitish va milliy madaniyatga daxldorlik tuyg‘usini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Etnopedagogik qadriyatlarni faqat dars jarayonida emas, balki sinfdan tashqari faoliyatlarda ham qo‘llash yuqori samaradorlik beradi. Jumladan, folklor festivallari, dostonxonlik kechalari, baxshichilik tanlovlari, milliy bayramlar, xalq o‘yinlari, muzeylarga sayohatlar va ijodiy tadbirlar o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Etnopedagogik qadriyatlardan ta’lim-tarbiya jarayonida tizimli foydalanish o‘quvchi-yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira, ma’naviy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega.

Folklor namunalarida xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, axloqiy qarashlari, orzu-intilishlari va ma’naviy qadriyatlari mujassamlashgan. Shu sababli ertak, doston, rivoyat va xalq qo‘shiqlarini pedagogik jarayonda qo‘llash orqali o‘quvchilarda ajdodlar merosiga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabat shakllantiriladi.

Etnopedagogik qadriyatlarni o‘quvchilarga taqdim etishda faqat nazariy ma’lumot berish yetarli emas. Ta’lim samaradorligini oshirish uchun interfaol metodlar, sahnalashtirish,

ISSN 2181-4309

rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar, ijodiy loyihalar va multimedia vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, o‘rganilayotgan materialni chuqurroq anglashiga imkon beradi.

Etnopedagogik qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning kompleks mazmunga egaligidir. Ya’ni folklor va xalq an’analarida badiiy, axloqiy, estetik, ma’naviy va tarbiyaviy mazmun o‘zaro uyg‘unlashadi. Shu bois ularni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar nafaqat muayyan asar mazmunini o‘zlashtiradilar, balki xalqning dunyoqarashi, tarixiy hayoti va madaniy tajribasi bilan ham tanishadilar.

Ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham milliy o‘zlikni shakllantirish jarayonining samaradorligini oshiradi. Oilaviy an’analarni o‘rganish, milliy bayramlar va urf-odatlar bilan bog‘liq suhbatlar, keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish orqali maktab va oila tarbiyaviy ta’sirining uzviyligi ta’minlanadi. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish etnopedagogik materiallarni yoshlar uchun yanada qiziqarli va tushunarli shaklda taqdim etish imkonini beradi. Folklor namunalarini audio, video, elektron taqdimot va raqamli loyihalar orqali o‘rganish o‘quvchilarning mustaqil izlanish faolligini kuchaytiradi. Etnopedagogik qadriyatlarni zamonaviy ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning milliy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish, tarixiy xotirasini mustahkamlash va milliy o‘zlikni anglash darajasini oshirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Etnopedagogik qadriyatlar o‘quvchi-yoshlarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish va rivojlantirishning muhim pedagogik vositalaridan biri ekanligi aniqlandi. Xalq pedagogikasi, folklor asarlari, milliy urf-odatlar, an’analar va madaniy meros namunalaridan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish yoshlarning tarixiy tafakkuri, milliy g‘ururi, ma’naviy dunyoqarashi va vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Etnopedagogik qadriyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali vosita, shakl va metodlari aniqlandi. Jumladan, xalq ertaklari, dostonlar, rivoyatlar, xalq qo‘shiqlari, milliy o‘yinlar, ijodiy loyihalar, sahnalashtirish va interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda ajdodlar merosiga hurmat, axloqiy fazilatlar, estetik qarashlar va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish mumkin. Shuningdek, milliy o‘zlikni shakllantirish jarayoni faqat dars mashg‘ulotlari bilan chegaralanmasligi, balki sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar, folklor festivallari, dostonxonlik kechalari, muzeylarga sayohatlar, ijodiy mashg‘ulotlar hamda ota-onalar bilan hamkorlikdagi faoliyatlar orqali uzluksiz davom ettirilishi lozim.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar beriladi:

1. Etnopedagogik qadriyatlarni — ertak, doston, rivoyat, maqol va xalq qo‘shiqlarini — ta’lim mazmuniga tizimli kiritish hamda ularning tarbiyaviy mazmunini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqish.

2. Dars jarayonida interfaol metodlar, sahnalashtirish, rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar, ijodiy loyihalar va multimedia vositalaridan foydalanish.

3. Folklor festivallari, dostonxonlik kechalari, baxshichilik tanlovlari, milliy bayramlar, xalq o‘yinlari va muzeylarga sayohatlarni sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar rejasiga kiritish.

4. Oilaviy an’analarni o‘rganish, milliy bayramlar va urf-odatlar bo‘yicha suhbatlar hamda keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlar orqali maktab va oila hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

5. Folklor namunalarini audio, video, elektron taqdimot va raqamli loyihalar orqali o‘rganishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish, tarixiy xotirani mustahkamlash va milliy o‘zlikni rivojlantirish ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, etnopedagogik qadriyatlar yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularning ma’naviy dunyosini boyitish va barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, M. E. (2022). *Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish tizimi* [A system for developing a sense of national pride in students by means of ethnopedagogical values; Doctoral dissertation (PhD),

2. Maqsudov, U. Q. (2021). *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodi vositasida ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik tizimi* [A pedagogical system for developing social activity skills in primary school students through folk oral literature; Doctoral dissertation (PhD),

3. Quchqarov, V. (2013). *Milliy o‘zlikni anglash va barqaror taraqqiyot* [National self-awareness and sustainable development]. Akademiya.

4.Safarova, R. G‘., Musayev, U., Musayev, P., Yusupova, F., & Nurjanova, R. (2005). *O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim strategiyasi muammolari va ta’lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo‘llari* [Problems of the general secondary education strategy in the Republic of Uzbekistan and new models of educational content, ways of implementing them]. Fan

MUNDARIJA

U.B.Ismoilov
MOBIL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TALABALARNING MUSTAQIL NOTIQLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK ASOSLARI 195 201

Parpiev Tursunboy Hojiyevich
SHERALI JO'RAYEV QO'SHIQLARINING YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING PEDAGOGIK MEZONLARI 202 205

G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA TA'LIM TRANSFORMATSIYASI..... 206 210

Umarov Azizbek Vaxobovich
PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI VA MUAMMOLARI 211 215

Umarov Azizbek Vaxobovich
MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROTLI YONDASHUVNING PEDAGOGIK MOHIYATI VA IMKONIYATLARI 216 220

Turg'untoshev Muxlisbek Ilhomjon o'g'li
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGI VA SOG'LOM OVQATLANISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR 221 226

Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich
ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLAR – O'QUVCHI-YOSHLARDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING ASOSI SIFATIDA 227 231

Q.Q.Toshtemirov
INKLYUZIV TA'LIMDA BOLALARNI MUSIQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH..... 232 238

Xabibullayeva Madinaxon Muxtorjon qizi
TA'LIM MUHITIDA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH VA PEDAGOGIK TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 239 243

A.A.Zaparov, M.D.Samatova
EKONOMETRIKANI O'QITISHDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI 244 249

Mamasodiqova Xusnida Rahimjon qizi
XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PISA, TIMSS, PIRLS) YONDASHUVLARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH..... 250 252

Abduvaxobova Mubinaxon Azizbek qizi
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EMOTSIONAL KONSEPTLARNING FRAZEOLOGIK VERBALIZATSIYASI: LINGVOKOGNITIV VA LINGVOMADANIY TAHLIL 253 257

